Xorijiy huquq tizimlari tahlilidan litsenziya shartnomasi predmetini aniqroq belgilash zaruriyati namoyon bo'ladi. Litsenziya shartnomasi predmeti, bir tomondan, litsenziya beruvchi foydalanishni taqiqlash bo'yicha qonuniy huquqqa ega bo'lgan nomoddiy mulk bo'lishi mumkin. Xususan, sanoat mulki huquqlari (patentlar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari), mualliflik huquqi yoki turdosh huquqlar, shuningdek, ma'lum individuallashtirish va nomga bo'lgan huquqlar. Boshqa tomondan, amalda tijorat sirlari yoki nou-xauni litsenziyalash ham mumkin. Bu holda shartnoma predmeti nomoddiy mulk ro'yxatiga kiritilmagan, biroq egasi tomonidan maxfiy saqlanuvchi texnik yoki tijorat ma'lumotlar bo'lishi mumkin. Biotexnologiya so-

hasida, xususan, patent huquqlari, biologik materiallar, genetik ketma-ketliklar va klinik tadqiqot ma'lumotlari litsenziyalashning asosiy predmeti hisoblanadi.

Litsenziyalarni ro'yxatga olishning huquqiy ta'siri huquq tizimiga qarab farqlanadi va bu O'zbekiston uchun amaliy ahamiyatga ega. Germaniya huquqida ro'yxatga olish faqat deklarativ ta'sirga ega: moddiy huquqiy holat, ya'ni shartnomaning o'zi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Boshqa huquqiy tizimlarda, xususan, Fransiya, Italiya, Shveysariya va Avstriya kabi davlatlarda intellektual mulk huquqlarini litsenziyalash faqat ro'yxatga olingandan keyin uchinchi shaxslarga nisbatan huquqiy kuchga ega bo'ladi (konstitutiv ta'sir). Janubiy Koreya Patent qonunida (Republic of Korea, 2020) ham Yaponiya va Xitoy Patent qonunlaridagi singari mutlaq litsenziyalar ro'yxatdan o'tkazilishi shart bo'lsa, nomutlaq litsenziyalar ro'yxatdan o'tkazilmasa ham, amal qilish tamoyilini qo'llaydi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan umumiy xususiyatlar, predmet va ro'yxatdan o'tkazish masalalari fonida endi litsenziya shartnomasi asosiy tasnifining huquqiy mazmunini batafsil tahlil qilish maqsadga muvofiq. Biotexnologiya sohasida litsenziya shartnomasining asosiy tasnifi nomutlaq (oddiy), mutlaq va yagona litsenziyalar hamda majburiy litsenziyalar masalasini qamrab oladi.

Nomutlaq (oddiy) litsenziya shartnomalarida litsenziat texnologiyadan foydalanishi mumkin, ammo litsenziar boshqa shaxslarga ham xuddi shunday litsenziyalar berish huquqini saqlab qoladi. Bu holat litsenziarlar uchun bir nechta litsenziatlar orqali ko'p daromad manbalarini qo'lga kiritish imkonini beradi. Nomutlaq litsenziyalar keng qo'llanadigan texnologiyalar standartlashtirilgan vositalar va tadqiqot vositalari uchun afzalliklarga ega. Yaponiya Patent qonunining 78-moddasiga ko'ra (Japan, 2019), oddiy litsenziya bir vaqtda bir nechta shaxsga berilishi mumkin bo'lgan, ammo ularning hech biriga eksklyuzivlik ta'minlamaydigan litsenziya turidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mutlaq litsenziyalar bo'yicha nominal royalti stavkasi o'rtacha to'lovi nomutlaq litsenziyalarnikiga nisbatan balandligi, shuningdek, mutlaq litsenziyalar bo'yicha shartnoma hajmi va oldindan to'lovlar ham nomutlaq litsenziyalarga nisbatan bir necha barobar yuqori ekanligi aniqlangan (Shah et al., 2023). Nomutlaq litsenziat uchinchi shaxslarga qarshi mustaqil ravishda da'vo qilish huquqiga ega emas, biroq litsenziya beruvchidan intellektual mulk huquqlarini himoya qilish choralarini ko'rishni talab qilish huquqiga egadir.

Mutlaq litsenziyalarda litsenziar boshqa shaxslarga xuddi shu huquqni bermaslik majburiyati mavjud bo'lib, litsenziat belgilangan soha, hudud yoki vaqt doirasida intellektual mulk huquqlarining yagona foydalanuvchisi hisoblanadi. Mutlaq litsenziya litsenziatga *mulkiy* (*in rem*) xarakter kasb etgan huquq beradi. Nakayama mutlaq litsenziyani mulkiy tabiatdagi huquq sifatida ta'riflaydi (Nakayama, 2016); Takenaka esa uning kuchini "*erga omnes*" – barcha shaxslarga nisbatan kuchga ega ta'sirning patent litsenziyasidagi ko'rinishi sifatida baholaydi (Takenaka, 2008). Yaponiya Patent qonunining 77-moddasiga ko'ra (Japan, 2019), mutlaq litsenziya faqat litsenziatga monopol foydalanish huquqini beradi. Hatto patent egasining o'zi ham litsenziya doirasida ixtironi qo'llay olmaydi. Bu holatda litsenziat uchinchi shaxslar tomonidan patent buzilishi holatida mustaqil da'vo qo'zg'atish huquqiga egadir. AQSH biotexnologiya sektorida mutlaq litsenziyalar keng qo'llanadi. Xususan, inson gen terapiyasi sohasida *Broad Institute* (MIT va Harvard bilan hamkorlikda) klinik sinovlardan muvaffaqiyatli o'tish uchun zarur bo'lgan katta moliyaviy investitsiyalarni rag'batlantirish maqsadida *spin-off* va hamkor kompaniyalarga (masalan, "Editas Medicine") maqsadli *mutlaq litsenziyalar* berib kelmoqda (Broad Institute, 2014).

Yagona litsenziya (*sole license*) mutlaq va nomutlaq litsenziyalar o'rtasida oraliq holat sifatida namoyon bo'ladi. Bunda litsenziarning o'zi ham texnologiyasidan foydalanish huquqiga ega bo'lib qoladi, ammo boshqa shaxslarga litsenziya berish huquqini yo'qotadi. AQSH amaliyotida *Bey-Doul* qonuni universitetlarga biotexnologiya obyektlarini litsenziyalashda o'z tadqiqotlarini davom ettirish huquqini saqlab qolish imkonini beradi, bu esa yagona litsenziya mohiyatiga to'g'ri keladi (Cook-Deegan & Heaney, 2010). Xitoy Patent qonunining 51-moddasida (People's Republic of China, 2020) oddiy litsenziya rejimida patent egasi yagona yoki mutlaq litsenziya bera olmasligi alohida belgilab qo'yilgan. Bu uch turning mustaqil huquqiy kategoriya sifatida e'tirof etilishini qonuniy jihatdan tasdiqlaydi.

Ushbu xalqaro tajriba fonida Oʻzbekiston qonunchiligining holati alohida koʻrib chiqishni taqozo etadi. Oʻzbekiston FK 1036-moddasining 4-qismida (Republic of Uzbekistan, 1997) litsenziarning foydalanish huquqi saqlanib qolgan holda, biroq boshqa shaxslarga litsenziya berish huquqisiz foydalanish huquqi "mutlaq litsenziya" deya eʼtirof etiladi. Milliy qonunchiligimizning ushbu normasida mantiqiy izchillik yoʻqolganligi, chalkashlik mavjudligi seziladi. Germaniya amaliyoti va Xitoy Patent qonuniga koʻra, bunday holat "yagona litsenziya" sifatida aniq ajratilib koʻrsatilgan hamda litsenziarni ham foydalanishdan cheklaydigan holat esa "mutlaq litsenziya" deb eʼtirof etilgan. Demak, milliy qonunchilikdagi "mutlaq litsenziya" taʼrifi nafaqat terminologik, balki huquqiy oqibatlar nuqtayi nazaridan ham noaniq tuzilgan, deyish mumkin.

Roʻyxatdan oʻtkazish talabi masalasida ham milliy va xorijiy yondashuvlar oʻrtasida sezilarli farq mavjud. Oʻzbekiston qonunchiligida, xususan, FK 1089-moddasida (Republic of Uzbekistan, 1997) va "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari toʻgʻrisida"gi Qonunning 11-moddasida (Republic of Uzbekistan, 2002) litsenziya shartnomasi va qoʻshimcha litsenziya shartnomasi yozma shaklda tuzilishi va vakolatli davlat organida roʻyxatdan oʻtkazilishi belgilangan. Ushbu talablarga rioya etmaslik shartnomaning haqiqiy emas deb topilishiga olib keladi. Biroq bu qoidalarda roʻyxatdan oʻtkazish talabi mutlaq yoki nomutlaq litsenziya shartnomasiga qoʻllanishi qayd etilmagan boʻlib, mazmunan ikkala turdagi shartnomalarga ham birdek nazarda tutmoqda. Yaponiya Patent qonuniga koʻra (Japan, 2019) esa faqat mutlaq litsenziya shartnomalari roʻyxatdan oʻtkazilishi shart boʻlib, nomutlaq litsenziyalar uchun bu majburiy emas; Janubiy Koreya qonunchiligi (Republic of Korea, 2020) ham xuddi shu yondashuvni qoʻllaydi. Bunday differensiyallash nomutlaq litsenziyaning oʻziga xos xususiyatlarini, jumladan, uning tezkor ijrosi, maʼmuriy xarajatlarni kamaytirish zaruriyati, maxfiylik darajasini oshirish talabi, moslashuvchanlik, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini ragʻbatlantirish hamda investitsion muhitni yaxshilash kabilarni inobatga oladi.

Roʻyxatdan oʻtkazish masalasiga qoʻshimcha ravishda daʼvo qoʻzgʻatish huquqi masalasida ham milliy qonunchilikda aniq boʻshliq mavjud. Mutlaq litsenziya oluvchilarning uchinchi shaxslar tomonidan patent buzilishi holatlarida mustaqil ravishda himoya choralarini koʻrish huquqi FKda (Republic of Uzbekistan, 1997) aniq belgilanmagan. Bundan farqli ravishda, Xitoy qonunchiligida yagona litsenziat sudda mustaqil daʼvo qoʻzgʻatishi uchun patent egasi avval oʻzi daʼvo qoʻzgʻatmagan boʻlishi kerakligi nazarda tutilgan (People's Republic of China, 2020).

Litsenziya shartnomasi doirasida litsenziya oluvchi huquqining chegaralari moddiy (ishlab chiqarish, marketing va h.k.), geografik (hududiy litsenziya), miqdoriy (kvota litsenziyalari) yoki vaqt asosida boʻlishi mumkin. Foydalanish sohasi cheklovlari litsenziatning huquqlarini belgilangan dasturlar yoki foydalanish usullariga cheklaydi. Biotexnologiya sektorida bir xil patentlar turli tomonlarga, har biri mutlaq asosda, lekin turli foydalanish sohasi doiralari uchun litsenziyalanishi mumkin. AQSH Federal savdo komissiyasi va Adliya vazirligining 2017-yilgi yoʻriqnomasiga koʻra (U.S. Department of Justice & Federal Trade Commission, 2017), agar foydalanish sohasi cheklovlari texnologik farqlarga asoslangan boʻlsa va bozorni boʻlib tashlash maqsadida qoʻllanmasa, raqobat qonunchiligiga zid emas.

Foydalanish sohasi cheklovlari bilan bir qatorda, geografik cheklovlar ham biotexnologiya litsenziyalarining muhim elementi hisoblanadi. Geografik soha cheklovlari biotexnologiya litsenziyalarini maʼlum hududlarda qoʻllash huquqlarining cheklanishi mexanizmini ifodalaydi. Xalqaro amaliyot shuni koʻrsatadiki, geografik cheklovlar koʻpincha rivojlangan va rivojlanayotgan bozorlar oʻrtasida farqlanadi.

Parallel import masalasida Yevropa sudining huquqlarning tugashi doktrinasi (*Exhaustion doctrine*) muhim rol oʻynaydi: intellektual mulk egasining huquqlari uning obyekti birinchi marta qonuniy ravishda sotilgandan keyin "tugaydi" va xaridor oʻsha aniq obyektni qoʻshimcha ruxsatsiz tasarruf etishi mumkin.

Geografik cheklovlar bilan uzviy bogʻliq boʻlgan boshqa bir mexanizm – bozor segmentlarini litsenziyalashdir. Bu mexanizm farmatsevtika mahsulotlarining turli bozor segmentlari boʻyicha, masalan, retsept boʻyicha (Rx) va retseptsiz (OTC) sotuvlar boʻyicha litsenziya huquqlarini alohida ajratishni oʻz ichiga oladi. Retsept segmenti koʻpincha kasalxonalar va mutaxassislar


E-ISSN 2181-1148 ISSN 2181-919X

bilan hamkorlik orqali amalga oshirilsa, OTC segment keng aholi ommasi uchun moʻljallangan va turli marketing strategiyasini talab qiladi. Bozor segmentlarini differensiyallash litsenziarning turli savdo kanallaridan daromad olish imkonini beradi va litsenziya tuzilmasining moslashuvchanligini taʼminlaydi.

Bozor segmentlarini ajratish mexanizmi esa, oʻz navbatida, chegaralararo masalalarni yuzaga keltiradi. Biotexnologiya litsenziyalarining transchegaraviy tabiatidagi huquqiy murakkabliklar qatoriga regulyativ farqlar (FDA, EMA, PMDA, NMPA talablari oʻrtasidagi tafovutlar), patent huquqlarining territorial tabiati va turli mamlakatlardagi amal qilish muddatlari, litsenziya toʻlovlarining soliqqa tortilishi va ikki tomonlama soliq bitimlarining taʼsiri kabi masalalar kiradi. Ushbu masalalar litsenziya shartnomasida tegishli yurisdiksiya kelishuvi, amaldagi qonunchilik va bahslarni hal etish tartibi aniq belgilanishini talab etadi.

Ushbu chegaralararo muammolarni hal etishning samarali yoʻllaridan biri mintaqaviy litsenziya kelishuvlaridir. Mintaqaviy litsenziya kelishuvlari biotexnologiya huquqlarining mintaqaviy bloklar – EAC, ASEAN, MERCOSUR boʻyicha taqsimlanishi masalalarini oʻz ichiga oladi. Oʻzbekiston MDH mamlakatlari va Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqi (YOII) doirasidagi mintaqaviy litsenziya kelishuvlari uchun qulay pozitsiyaga ega boʻlib, biotexnologiya sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda ushbu mintaqaviy formatlardan foydalanish istiqbolli yoʻnalish hisoblanadi.

Mintaqaviy formatlar bilan bir qatorda, biotexnologiya sohasida yana bir oʻziga xos mexanizm – shartli mutlaqlik keng qoʻllanadi. Mutlaqlik darajasining vaqt oʻtishi bilan oʻzgarishi va shartli mutlaqlik mexanizmlarining qoʻllanishi biotexnologiya sohasining oʻziga xos xususiyatidir. Shartli mutlaqlik mexanizmlari maʼlum bosqichlarda yoki koʻrsatkichlarga erishilganda mutlaqlik huquqlarini oʻzgartirish imkonini beradi. Xalqaro amaliyotda AQSH Oziq-ovqat va dori-darmon idorasi tomonidan *Orphan Drug Act* (1983) doirasida noyob kasalliklar uchun dori vositalariga yetti yillik bozor mutlaqligi beriladi; pediatrik tadqiqotlar uchun qoʻshimcha olti oylik mutlaqlik ("Pediatric Exclusivity") ham mavjud. Yevropa Ittifoqida *PRIME* sxemasi (European Medicines Agency, 2026) orqali muhim tibbiy ehtiyojlarga javob beradigan dorilar uchun tezlashtirilgan koʻrib chiqish va shartli mutlaqlik mexanizmlari joriy etilgan. Kanada, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy kabi davlatlarda ham shartli mutlaqlik litsenziya shartnomasi amaliyoti amal qiladi.

Shartli mutlaqlik mexanizmlari bilan chambarchas bogʻliq masala – litsenziyaning muddatlilik xususiyati. Muddatli litsenziyalar biotexnologiya litsenziyalarining muayyan muddatga berilishi boʻyicha huquqiy tartibga solish mexanizmini ifodalaydi. Vaqt cheklovlari odatda patent muddati (koʻpchilik davlatlarda 20 yil) bilan bogʻliq. Biotexnologiya sohasida muddatli litsenziyalar uchun uchta omil hisobga olinishi kerak: klinik sinovlar davomiyligi (odatda 5–12 yil), regulyativ tasdiqlash jarayoni (1–3 yil) va bozorga chiqish hamda tijoratlashtirish (2–5 yil). Shu bois monoklonal antikorlar uchun toʻliq rivojlanish sikli 10–15 yilni tashkil qilishi mumkin. Patent muddati tugaganda faqat patent huquqlariga asoslangan litsenziyalar bekor boʻladi; agar litsenziya nou-xau yoki mualliflik huquqi bilan ham birgalikda berilgan boʻlsa, patent muddati tugagach royalty miqdori kamaytiriladi. Biotexnologiya sohasida texnologiyalar tez rivojlanishi sababli litsenziya shartnomasida dastlabki muddatdan keyin shartnomani yangilash shartlari, yangilanish muddatidan kamida 6–12 oy oldin xabardor qilish majburiyati va yangilanish narxini belgilash mexanizmlari aniq koʻrsatilishi lozim.

Muddatli litsenziyalar doirasida ularni belgilangan muddatdan avval bekor qilish asoslari ham alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday asoslar qatoriga patentdan amalda foydalanmaslik; shartnoma shartlarining jiddiy buzilishi, xususan, royalty toʻlovlarini amalga oshirmaslik yoki maxfiylik majburiyatlarini buzish; belgilangan bajarilish koʻrsatkichlariga erishilmasligi; tartibga soluvchi normalar va talablarning buzilishi, xususan, GMP standartlarini buzish; jamoat salomatligi ehtiyojlarining taʼminlanmasligi kabi holatlarni keltirish mumkin. Ushbu asoslar shartnomada aniq koʻrsatilishi va har bir tomonning ogohlantirish berish hamda muammoni bartaraf etish uchun belgilangan muddat olishi tavsiya etiladi.

Ixtiyoriy litsenziyalash mexanizmlari tahlilini yakunlab, davlat aralashuvi talab qiladigan maxsus holat – majburiy litsenziyalash institutiga

oʻtsak. Majburiy litsenziyalash davlat tomonidan patent egasining roziligisiz, ammo adolatli kompensatsiya toʻlash evaziga uchinchi shaxslarga patent obyektidan foydalanish huquqini berish mexanizmidir. Ushbu mexanizm TRIPS kelishuvining 31-moddasida belgilab qoʻyilgan boʻlib, milliy favqulodda holat, jamoat ehtiyoji yoki antimonopoliya amaliyoti qoʻllanishi mumkin boʻlgan holatlarda tatbiq etiladi (World Trade Organization, 1994). Majburiy litsenziyalashning asosiy afzalliklari sifatida quyidagilarni: adolatli kompensatsiya toʻlash sharti bilan iqtisodiy samaradorlikni taʼminlash; jamiyatning, ayniqsa, hayotiy muhim dorilardan foydalanish huquqini kafolatlash; *anticommons* muammosini, yaʼni koʻp sonli patent egalari tomonidan texnologiyaga kirishning sunʼiy ravishda cheklanishini hal qilishni qayd etish mumkin.

Xalqaro tajribada Braziliya, Hindiston va Tailandda OIV/OITS dorilariga nisbatan majburiy litsenziyalash muvaffaqiyatli qoʻllangan. JSST maʼlumotlariga koʻra, dori narxlari 80–90 foizgacha pasaygan va koʻplab bemorlar hayotini saqlab qolish imkoniyati yaratilgan (World Health Organization, 2021). Bu mexanizm dori narxlarini pasaytirish ehtimolini oshiradi, biroq xalqaro bozordan taʼminot orqali amalga oshirilgan hollarda samaradorlik mahalliy ishlab chiqarishga asoslangan hollarga nisbatan yuqori boʻlishi aniqlangan (Urias & Ramani, 2020).

YI 98/44/EC direktivasining 12-moddasida (European Parliament and Council of the European Union, 1998) biotexnologiya sohasida majburiy litsenziyalashning “chatishtiruvchi” mexanizmi belgilangan. Agar seleksiyachi yangi oʻsimlik navini yaratishda mavjud patentni buzishga majbur boʻlsa, u patent egasidan majburiy litsenziya olishi mumkin. Buning evaziga patent egasi ham yangi navdan foydalanish huquqini oladi. Bu model biotexnologiya va seleksiya sohasidagi ikki mustaqil huquq tizimining oʻzaro munosabatini muvozanatlashtiradi. Ushbu mexanizmni takomillashtirish muammosi yangi genomik texnikalar kontekstida ham dolzarbdir. Shuningdek, tadqiqotlarda yangi genomik texnikalar va oʻsimlik seleksiyasi sohasida patent egalari va seleksiyachilar oʻrtasidagi chatishtiruvchi litsenziyalash mexanizmini yanada kengaytirish zarurligi alohida asoslab berilgan (Kim et al., 2024).

Oʻzbekiston “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari toʻgʻrisida”gi Qonunning 11[1]-moddasi (Republic of Uzbekistan, 2002) majburiy litsenziyalash asoslarini belgilaydi. Unda patent egasi patent roʻyxatga olingan sanadan eʼtiboran uch yil yoki talabnoma berilgan sanadan eʼtiboran toʻrt yil mobaynida sanoat mulki obyektidan foydalanmasa yoki yetarli darajada foydalanmasa va bu bozorda tegishli tovarlar taklifi yetarli emasligiga olib kelsa, har qanday shaxs sudga murojaat qilishi mumkinligi belgilangan. Biroq qonunda biotexnologiya sohasining oʻziga xos xususiyatlari toʻliq hisobga olinmagan: YI 98/44/EC direktivasi 12-moddasidagi (European Parliament and Council of the European Union, 1998) ikki tomonlama mexanizm milliy qonunchilikda oʻz aksini topmagan. Muhim amaliy qadam sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-avgustdagi 535-son qarori (Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, 2024) eʼtiborga loyiq: ushbu nizomda sanoat mulki obyektidan patent egasining roziligisiz foydalanishga davlat mudofaasi va xavfsizligini taʼminlash, tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, fuqarolarning hayoti va sogʻligʻini muhofaza qilish bilan bogʻliq holatlarda ruxsat berilishi belgilangan. Biroq biotexnologik ixtirolarning oʻzaro bogʻliqligi va bir kasallikni davolash uchun koʻpincha bir nechta patent kerakligi inobatga olinmasa, ushbu mexanizm samarasiz boʻlib qolishi mumkin.

**Muhokama**

*1. Litsenziya shartnomasi huquqiy tabiati: shartnomaviy yondashuv va kvazi-ashyoviy huquq oʻrtasidagi bahslar*

Xorijiy davlatlar huquq tizimlari litsenziya shartnomasini turlicha talqin etadi. Koʻpchilik davlatlar barcha turdagi litsenziya shartnomalarini sof shartnomaviy-huquqiy bitim deb hisoblasa, Germaniya va Avstriyada hukmron taʼlimot faqat oddiy litsenziyani shunday deb hisoblaydi, mutlaq litsenziya esa kvazi-ashyoviy (*erga omnes*), yaʼni hammaga nisbatan taʼsirga ega deb qaraladi (Hilty, 2012). Ushbu farqning amaliy taʼsiri katta: mutlaq litsenziya oluvchi kvazi-ashyoviy yondashuvsiz nazariy jihatdan uchinchi shaxslarga qarshi huquqiy choralar koʻrish va vorislik himoyasi huquqidan mahrum boʻladi.


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

O‘zbekiston huquq tizimi kontinental huquq oilasiga mansub bo‘lib, Germaniya va Avstriya huquq an’analariga yaqin turadi. Shu munosabat bilan, litsenziya shartnomalarining huquqiy tabiatini belgilashda gibrid yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiq: nomutlaq litsenziyalar sof shartnomaviy-huquqiy bitim sifatida ko‘rilib, umumiy shartnoma huquqi qoidalariga bo‘ysunishi va ro‘yxatdan o‘tish ixtiyoriy bo‘lishi; mutlaq va yagona litsenziyalar esa kvazi-ashyoviy huquq elementlariga ega bo‘lib, uchinchi shaxslarga nisbatan ta’sir ko‘rsatuvchi huquqlar majmuasi sifatida ko‘rilishi va ro‘yxatdan o‘tishi majburiyligi belgilanishi lozim.

*2. FK 1036-moddadagi terminologik xatoning huquqiy oqibatlari va uni bartaraf etish yo‘llari*

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 1036-moddasidagi (Republic of Uzbekistan, 1997) “mutlaq litsenziya” ta’rifi xalqaro amaliyotdagi “yagona litsenziya” mazmuniga to‘g‘ri keladi. Bu terminologik chalkashlikning uchta muhim huquqiy oqibati bor. Birinchidan, haqiqiy mutlaq litsenziyani tartibga soluvchi norma yo‘qligi sababli patent egasini texnologiyadan butunlay chiqarib yuboradigan va litsenziatga to‘liq mulkiy (*in rem*) huquq beradigan munosabatlar qonunchilikda tartibga solinmay qoladi. Ikkinchidan, “mutlaq litsenziya” va “yagona litsenziya” turlarini alohida belgilagan holda da’vo qo‘zg‘atish huquqini ham har bir turga mos keltirib tartibga solish mumkin bo‘lmaydi. Uchinchidan, xorijiy kompaniyalar milliy qonunchilikda “mutlaq litsenziya” atamasini xalqaro ma’nosida qo‘llasa, ikki tomon o‘rtasida tushunmovchiliklar paydo bo‘lishi muqarrar.

Xitoy Patent qonunining 51-moddasi (People’s Republic of China, 2020) bu masalani samarali hal qilgani ko‘rinib turibdi: qonunda uchta tur alohida ta’riflangan va har birining huquqiy oqibatlari aniq belgilangan. Germaniya amaliyotida ham shartnoma erkinligi asosida yagona litsenziya alohida kategoriya sifatida shakllangan. Shu sababli O‘zbekiston qonunchiligi ham ushbu tajribadan foydalanib, Fuqarolik kodeksida nomutlaq, yagona va mutlaq litsenziyalar uchun alohida ta’riflar va har birining huquqiy oqibatlarini aniq belgilaydigan normalar kiritishi zarur.

*3. Ro‘yxatdan o‘tkazish talabini differensiyallash zarurati*

Milliy qonunchilikda barcha turdagi litsenziya shartnomalariga ro‘yxatdan o‘tkazish majburiy sanaladi. Yaponiya va Janubiy Koreya amaliyoti bilan solishtirish shuni ko‘rsatadiki, nomutlaq litsenziya shartnomalarini ro‘yxatdan o‘tkazish majburiy qilish amaliyotning o‘ziga xos ehtiyojlarini hisobga olmaydi. Birinchidan, nomutlaq litsenziyalar ko‘pincha tadqiqot hamkorligi yoki vaqtinchalik kelishuvlarni tartibga soladi va tezkor ijroni talab qiladi. Ikkinchidan, ro‘yxatdan o‘tkazish ma’muriy xarajatlar va vaqt sarflanishini anglatadi, bu, ayniqsa, kichik va o‘rta biznes uchun qiyinchilik yaratadi. Uchinchidan, maxfiylik darajasi yuqori bo‘lishi lozim bo‘lgan nou-xau nomutlaq litsenziyalarida davlat idorasida ro‘yxatdan o‘tkazish ma’lumotlar oshkoraligi xavfini yuzaga keltiradi. To‘rtinchidan, xalqaro investorlar nomutlaq litsenziya shartnomasini ro‘yxatdan o‘tkazish majburiy bo‘lgan yurisdiksiyadan ko‘ra talabi yengilroq mamlakatlarni afzal ko‘rishi mumkin.

*4. Mutlaq va yagona litsenziat oluvchilarning da’vo qo‘zg‘atish huquqini tartibga solmaslikning amaliy muammolari*

Mutlaq va yagona litsenziat oluvchilarning uchinchi shaxslarga qarshi mustaqil da’vo qo‘zg‘atish huquqi milliy qonunchilikda aniq belgilanmagan. Bu bo‘shliqning amaliy oqibati katta: mutlaq litsenziat patent buzilishiga duch kelganda, u mustaqil da’vo qo‘zg‘atishi mumkinmi yoki litsenziarning roziligi zarurmi degan savolga aniq javob yo‘q. Biotexnologiya sohasida bu, ayniqsa, muhim – agar mutlaq litsenziat raqobatchi kompaniya o‘zining eksklyuziv foydalanish huquqini buzayotganini aniqlasa, u darhol himoya choralarini ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Xalqaro amaliyotda bu masala turlicha hal etilgan. Yaponiya Patent qonuni 77-moddasiga ko‘ra (Japan, 2019), mutlaq litsenziat mustaqil da’vo qo‘zg‘atish huquqiga ega. Xitoyda yagona litsenziat patent egasi avval o‘zi da’vo qo‘zg‘atmagan bo‘lishi sharti bilan mustaqil da’vo qo‘zg‘atishi mumkin. Ushbu tajribadan kelib chiqib, O‘zbekiston qonunchiligida uch darajali mexanizm joriy etish, ya’ni oddiy, yagona va mutlaq litsenziatlarning da’vo huquqlarini differensiyallash amaliyot ehtiyojlarini qondiradi: oddiy litsenziat litsenziar orqali, yagona litsenziat patent egasi avval o‘zi da’vo qo‘zg‘atmagan taqdirda, mutlaq

litsenziat esa toʻliq mustaqil ravishda daʼvo qoʻzgʻatish huquqiga ega boʻlishi kerak.

*5. Biotexnologiyaga xos cheklovlarning milliy qonunchilikda tartibga solinmaganligi*

Foydalanish sohasi cheklovlari, geografik cheklovlar, shartli mutlaqlik mexanizmlari va muddatli litsenziyalarga oid qoidalar milliy qonunchiligimizda maxsus tartibga solinmagan. Bu boʻshliq biotexnologiya sohasida amaliy qiyinchiliklarga olib kelishi muqarrar. Masalan, bitta genning turli kasalliklarni davolash uchun turli kompaniyalarga litsenziyalanishi amaliyotida foydalanish sohasi cheklovlarining qonuniy asosi yoʻqligi nizoli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. AQSH FSK 2017-yilgi yoʻriqnomasida (U.S. Department of Justice & Federal Trade Commission, 2017) foydalanish sohasi cheklovlarini qonuniy deb topish mezonlari aniq belgilangan – milliy qonunchilikda ham bunday mezonlarni qoʻllash investorlarning huquqiy xavfsizligini oshiradi.

Shartli mutlaqlik mexanizmlari ham milliy qonunchilikda alohida oʻz aksini topmagan. *Orphan Drug Act* (1983) va *PRIME* sxemasi (European Medicines Agency, 2026) tajribasi shuni koʻrsatadiki, shartli mutlaqlik farmatsevtika va biotexnologiya sohasida innovatsiyalarni ragʻbatlantirish uchun samarali mexanizm sifatida ishlaydi: davlat jamoat manfaatlarini himoya qilgan holda litsenziatni investitsiya qilishga undaydi. Oʻzbekistonda ham hayotiy muhim dorilar yoki noyob kasalliklarni davolash uchun moʻljallangan biotexnologik mahsulotlarga nisbatan bunday mexanizmni joriy etish maqsadga muvofiq.

*6. Majburiy litsenziyalash mexanizmini biotexnologiya uchun takomillashtirish zarurati*

Oʻzbekiston “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari toʻgʻrisida”gi Qonunning $11^1$-moddasi (Republic of Uzbekistan, 2002) majburiy litsenziyalashning umumiy asoslarini belgilagan, biroq biotexnologiyaning oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olmagan. YI 98/44/EC direktivasining 12-moddasidagi (European Parliament and Council of the European Union, 1998) “chatishtiruvchi” majburiy litsenziya modeli va Vazirlar Mahkamasining 535-son Nizomini (Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, 2024) solishtirish shuni koʻrsatadiki, milliy mexanizm ixtirodan foydalanmaslikka asoslangan majburiy litsenziyani tartibga soladi, lekin biotexnologik ixtironi amalga oshirishda mavjud patentni buzishga majbur boʻlingan holat yoki jamoat salomatligi favqulodda vaziyatlarida qoʻllanadigan maxsus mexanizm belgilanmagan.

Braziliya, Hindiston va Tailand tajribasi shuni koʻrsatadiki, toʻgʻri tashkil etilgan majburiy litsenziyalash innovatsiyani boʻgʻmaydigan, aksincha, texnologiyaning ijtimoiy-foydali taʼsirini kengaytiradigan mexanizm sifatida ishlaydi. Vazirlar Mahkamasining 535-sonli nizomida belgilangan adolatli kompensatsiya mexanizmi (3-bob, 12–15-bandlar) buning uchun yaxshi asos boʻlib xizmat qiladi. Biroq qiyosiy tahlillar natijalari shuni koʻrsatadiki, yuqori daromadli mamlakatlarda majburiy litsenziyalash dori narxlarini kamaytirish uchun kamdan kam qoʻllanadi. Bu mexanizm tahdid shaklida boʻlsa ham, kamdan kam hollarda yakuniy litsenziya berilishi hamda narx pasayishiga olib keladi (Qunaj et al., 2022). Shu sababli milliy qonunchilikda majburiy litsenziyalash tartibi aniqroq va samarali tartibga solinishi, shuningdek, biotexnologik ixtirolarning oʻzaro bogʻliqligi, bitta kasallikni davolash uchun koʻpincha bir nechta patent kerakligi inobatga olinishi zarur.

**Xulosa**

Biotexnologiya sohasidagi litsenziya shartnomalari huquqiy tabiatini xorijiy davlatlar tajribasi va milliy qonunchilik bilan solishtirma tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, Oʻzbekiston Fuqarolik kodeksining 1036-moddasida “mutlaq litsenziya” sifatida belgilangan norma oʻz huquqiy mazmuniga koʻra xalqaro amaliyotda “yagona litsenziya” (*sole license*) deb ataluvchi kategoriyaga toʻgʻri keladi. Bu terminologik chalkashlik nafaqat qonunchilikdagi ichki ziddiyatni yuzaga keltiradi, balki xorijiy kompaniyalar bilan tuzilayotgan shartnomalar talqinida jiddiy tushunmovchiliklarga olib kelishi muqarrar. Shu sababli milliy qonunchiligimizga oʻzgartirishlar kiritib, nomutlaq (oddiy), yagona va mutlaq litsenziyalar uchun alohida taʼriflar belgilash zarur.

Ikkinchidan, litsenziya shartnomasini roʻyxatdan oʻtkazish talabini differensiyallash huquq ijodkorligi nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Yaponiya va Janubiy Koreya amaliyoti koʻrsatganidek, nomutlaq litsenziyalarni roʻyxatdan oʻtkazish ixtiyoriy qilinishi bu toifadagi


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

bitimlarning tezkor ijrosini ta'minlaydi, ma'muriy xarajatlarni kamaytiradi va kichik biznes hamda ilmiy hamkorlik kelishuvlari uchun qulay muhit yaratadi.

Uchinchidan, mutlaq va yagona litsenziat oluvchilarning uchinchi shaxslarga qarshi mustaqil da'vo qo'zg'atish huquqi "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonun va Fuqarolik kodeksida aniq tartibga solinishi lozim. Taklif etilayotgan uch darajali mexanizm – oddiy litsenziat litsenziar orqali, yagona litsenziat patent egasi avval da'vo qo'zg'atmagan taqdirda, mutlaq litsenziat esa to'liq mustaqil ravishda da'vo huquqlarini differensiyallashni ta'minlaydi.

To'rtinchidan, biotexnologiyaga xos huquqiy mexanizmlar, xususan, foydalanish sohasi cheklovlari, geografik hududiy cheklovlar, shartli mutlaqlik va muddatli litsenziya qoidalari milliy qonunchilikda alohida tartibga solinishi zarur. Bu borada AQSH Federal savdo komissiyasining 2017-yilgi yo'riqnomasi va Yevropa Ittifoqining 98/44/EC direktivasi muhim me'yoriy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Beshinchidan, majburiy litsenziyalash instituti "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonunning $11^1$-moddasida yanada takomillashtirilishi, xususan, YI 98/44/EC direktivasining 12-moddasidagi ikki tomonlama "chatishtiruvchi" mexanizm milliy qonunchilikka singdirilishi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-avgustdagi 535-son qarorida belgilangan adolatli kompensatsiya mexanizmi biotexnologik ixtirolar o'ziga xosligini inobatga olgan holda kengaytirilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, biotexnologiya sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish ko'p jihatdan litsenziya munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy bazaning sifatiga bog'liqdir. Taklif etilayotgan qonunchilik o'zgartirishlari milliy huquqni xalqaro standartlarga moslashtirish va O'zbekistonni biotexnologiya sohasidagi global hamkorlik uchun qulay yurisdiksiyaga aylantirish imkonini beradi.

## REFERENCES

Bayh-Dole Act, 35 U.S.C. §§ 200-212 (1980). United States Patent and Trademark Office. https://www.govinfo.gov/content/pkg/USCODE-2011-title35/pdf/USCODE-2011-title35-partII-chap18.pdf

Broad Institute. (2014). *Information about licensing CRISPR genome editing technology.* https://www.broadinstitute.org/partnerships/office-strategic-alliances-and-partnering/information-about-licensing-crispr-genome-edi

Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. (2024). (*Resolution "On approval of the regulation on determining the amount of compensation payable when an invention, utility model or industrial design is used without the consent of the patent holder". No. 535* https://lex.uz/uz/docs/-7090221

Cook-Deegan, R., & Heaney, C. (2010). *Patents in genomics and human genetics. Annual Review of Genomics and Human Genetics, 11,* 383–425. https://doi.org/10.1146/annurev-genom-082509-141811

De Forest Radio Telephone Co. v. United States, 273 U.S. 236 (1927). https://supreme.justia.com/cases/federal/us/273/236/

Drozdoff, V., & Fairbairn, D. (2015). Licensing biotech intellectual property in university-industry partnerships. *Cold Spring Harbor Perspectives in Biology, 5*(3), Article a021014. https://doi.org/10.1101/cshperspect.a021014

Etablissements Consten SaRL and Grundig-Verkaufs-GmbH v. Commission, Joined Cases 56 and 58/64. ECR 429. (1966) https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:61964CJ0056

European Medicines Agency. (2026). *PRIME: Priority medicines.* https://www.ema.europa.eu/en/human-regulatory-overview/research-development/prime-priority-medicines

European Parliament and Council of the European Union. (1998). *Council Directive 98/44/EC of 6 July 1998 on the legal protection of biotechnological inventions.* Official Journal of the European Communities, L 213, 13–21. https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=celex:31998L0044

Federal Republic of Germany. (1981). *German Patent Act (Patentgesetz – PatG).* Federal Ministry of Justice. https://www.gesetze-im-internet.de/patg

Hilty, R. M. (2012). *License agreements.* In J. Basedow, K. J. Hopt, & R. Zimmermann (Eds.), *Max Planck Encyclopedia of European Private Law.* Max Planck Institute for Comparative and International Private Law. https://max-eup2012.mpipriv.de/index.php/License_Agreements

Japan. (2019). *Patent Act (Act No. 121 of April 13, 1959, as amended up to 2019).* Japan Patent Office. https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/3118/en

Kalantar-Zadeh, K. (2017). History of erythropoiesis-stimulating agents, the development of biosimilars, and the future of anemia treatment in nephrology. *American Journal of Nephrology, 45*(3), 235–247. https://doi.org/10.1159/000455387

Kim, D., Kock, M. A., Lamping, M., Batista, P. H. D., Hilty, R. M., Slowinski, P. R., & Steinhart, M. (2024). New genomic techniques and intellectual property law: Challenges and solutions for the plant breeding sector. *GRUR International, 73*(4), 323–339. https://doi.org/10.1093/grurint/ikae017

Nakayama, N. (2016). *Patent Act* (3rd ed.). Koubundou. https://www.iip.or.jp/translation/pdf/nakayama3rd.pdf

Okyulov, O. (2005). *Intellektual mulk huquqi* [Intellectual property law]. I. M. Muminov Institute of Philosophy and Law.

Orphan Drug Act, 21 U.S.C. §§ 360aa–360ee (1983). https://www.fda.gov

People's Republic of China. (2020). *Patent Law of the People's Republic of China.* National Intellectual Property Administration of China. https://www.cpahkltd.com/UploadFiles/20201222110401200.pdf

Qunaj, L., Kaltenboeck, A., & Bach, P. B. (2022). Compulsory licensing of pharmaceuticals in high-income countries: A comparative analysis. *The Milbank Quarterly, 100*(1), 284–313. https://doi.org/10.1111/1468-0009.12557

Republic of Korea. (2020). *Patent Act of the Republic of Korea.* Korean Intellectual Property Office. https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=5715&lang=ENG

Republic of Uzbekistan. (1997). *Civil Code of the Republic of Uzbekistan*. (with amendments and additions up to 2026) https://lex.uz/docs/-180552

Republic of Uzbekistan. (2002). *"On Inventions, Utility Models and Industrial Designs Law № 1062*–XII. https://lex.uz/docs/-76671

Russian Federation. (2006). *Civil Code of the Russian Federation.* (Federal Law No. 230-FZ). https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_64629/

Shah, P., Vaughan, G., & Ledley, F. D. (2023). Comparing the economic terms of biotechnology licenses from academic institutions with those between commercial firms. *Plos One, 18*(3), e0283887. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0283887

Takenaka, T. (Ed.). (2008). *Patent law and theory: A handbook of contemporary research.* Edward Elgar Publishing. https://www.e-elgar.com/shop/patent-law-and-theory

U.S. Department of Justice, & Federal Trade Commission. (2017). *Antitrust guidelines for the licensing of intellectual property.* https://www.justice.gov/atr/IPguidelines/download

Urias, E., & Ramani, S. V. (2020). Access to medicines after TRIPS: Is compulsory licensing an effective mechanism to lower drug prices? A review of the existing evidence. *Journal of International Business Policy, 3*(4), 367–384. https://doi.org/10.1057/s42214-020-00068-4

World Health Organization. (2021). *Promoting access to medical technologies and innovation: Intersections between public health, intellectual property and trade* (2nd ed.). WHO Press. https://www.who.int/publications/i/item/9789240031241

World Trade Organization. (1994). *Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights.* TRIPS Agreement. https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/27-trips.pdf


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
# ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
# REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

**2026-yil maxsus son**

VOLUME 10 / SPECIAL ISSUE / 2026
DOI: HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.SI.